

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NEGMATOV BOBIR MADJITOVICH**

**IX-XII ASRLAR MARKAZIY OSIYO ILMIY-FALSAFIY  
TA'LIMOTLARIDA GUMANISTIK G'OYALAR (FOROBIY,  
BERUNIY, IBN SINO MEROSI MISOLIDA)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Contents of the Doctoral (DSc) Dissertation Abstract**

**Negmatov Bobir Madjitovich**

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy ta’limotlarida gumanistik g‘oyalar (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino merosi misolida) .....3

**Негматов Бобир Маджитович**

Гуманистические идеи в научно-философских учениях Центральной Азии IX-XII веков (на примере наследия Фараби, Беруни, Ибн Сины) .....33

**Negmatov Bobir Madjitovich**

Humanistic ideas in the scientific and philosophical teachings of Central Asia in the 9<sup>th</sup>-12<sup>th</sup> centuries (based on the legacy of Farabi, Beruni, Ibn Sina) .....69

**E’lon qilingan ilmiy ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....74

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**NEGMATOV BOBIR MADJITOVICH**

**IX-XII ASRLAR MARKAZIY OSIYO ILMIY-FALSAFIY  
TA’LIMOTLARIDA GUMANISTIK G‘OYALAR (FOROBIY,  
BERUNIY, IBN SINO MEROSI MISOLIDA)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**FALSAFA FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.DSc/Fal210 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fs-ik.uz](http://www.fs-ik.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Maxmudova Guli Tilabovna**

falsafa fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponenlar:**

**Turayev Baxtiyor Omonovich**

falsafa fanlari doktori, professor

**Karimov Soyibnazar**

falsafa fanlari doktori, professor

**Amridinova Dilrabo Tursunovna**

falsafa fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil \_\_-\_\_ soat 10.00 da majlisida bo'lib o'tdi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti, 4-qavat, 417-xona). **Tel.: (99871) 246-67-72; faks: (99871) 246-67-72; e-mail: [ik-falsafa@nuu.uz](mailto:ik-falsafa@nuu.uz)**.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (№ 157-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (99871) 246-67-71; faks: (99871) 246-67-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25.09 da tarqatildi (2025-yil 25.09 da 20-raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.S.Saifnazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

**G.M.Shadimetova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**O'.G'.Tilavov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda insoniyat hozirgi kunga kelib murakkab sivilizatsion transformatsiyalar jarayonida, nafaqat iqtisodiy inqiroz, shuningdek, qadriyatlar tizimi inqirozi holatini boshdan kechirmoqda. Ayniqsa, qadriyatlar, ehtiyojlar va manfaatlar doirasida yangilikka bo'lgan munosabat turlicha namoyon bo'lmoqda. Jumladan, falsafa, fan, san'at va dinda vujudga keladigan yangilanishlar keskin bahs-munozaralar, ziddiyatlar va mafkuraviy kurashlarni keltirib chiqarishi muqarrar. Gumanizm va degumanizatsiya tamoyillari murakkab voqelikni qamrab olmoqda hamda borliqning barcha shakllarida ijtimoiy muvozanat va barqarorlik omillari, iqtisod, maorif, ta'lim va fanga bog'liqligida namoyon bo'lmoqda. Gumanizm va gumanitar xavfsizlik muammolari o'ta dolzarb bo'lib, voqelikdagi barcha qadriyatlar va unga qarama-qarshi bo'lgan degumanistik idrok virtual makonida yangi ijtimoiy guruhlarini tashkil etmoqda. Buning natijasida dunyoda insonning begonalashuvi va majburiy mavjudlik konstruksiyalari ustuvor bo'lib bormoqda.

Dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida azaliy qadriyat sifatida Gumanizmning tadqiq qilinishi, uning mohiyatini hozirgi kunda faqat transdissiplinar, tarmoqlararo izlanishlar orqali amalga oshirish mumkinligini ko'rsatmoqda. Jahon tarixiy taraqqiyotida ulug' mutafakkirlarning insonparvarlik merosi ilm-fan va zamonaviy bilimlarning nazariy asosi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, bugungi axborot asrida ma'naviy-madaniy transformatsiya jarayonlarini tartibga solish, konseptual xarakterga ega ilmiy-falsafiy bilimlar vorisiyligini ta'minlash, bilim ideallari va normalariga rioya qilishda tarixiylik tamoyiliga amal qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, buyuk allomalarning inson va uning har tomonlama kamoloti, fozil jamoa, ilm-fan, ma'rifat, dunyoni bilish, haqiqatni anglashga oid qarashlarini bugungi kun transformatsiyalari bilan uyg'unlashtirib borish zaruratini saqlab qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasida o'rta asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy ta'limotlaridagi gumanistik g'oyalarni chuqur o'rganish, uning ijtimoiy-falsafiy tafakkur yutuqlari bilan aloqadorligi hamda umuminsoniy ahamiyatga molik g'oyalar bilan hamohang ekanligini tadqiq qilish dolzarb vazifalardan sanaladi. Bunda dunyo sivilizatsiyasiga betakror hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning boy merosi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yurtboshimiz ta'kidlab o'tganlaridek, "biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"<sup>1</sup>. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xalqaro Islom sivilizatsiyasi markazi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистонда эркин ва фаровон яшайлик. 5-жилд. – Тошкент: O'zbekiston, 2023, 198-б.

innovatsiyalar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti hamda boshqa bir qator ilmiy tadqiqot muassasalari tomonidan olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi 4307-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-apreldagi 211-son “Xorazm Ma‘mun akademiyasining faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi 5847-son “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi 361-son “Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050 yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni hamda sohaga daxldor boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. IX-XII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy ta’limotlaridagi gumanistik g‘oyalar (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino merosi misolida)ni tadqiq etishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, University of Tehran (Eron), Istanbul University (Turkiya), Sorbonne University (Fransiya), Yall Institute for global Health Initiatives, University of Pennsylvania (AQSh), The university of Queensland (Avstraliya), Moskva davlat universiteti (Rossiya), University of Warsaw (Polsha), Alma mater studiorum Universita di Bologna (Italiya), University of Hamburg (Germaniya), International Islamic University (Malayziya), Kuliah di Universitas Islam (Indoneziya), Quaid-i-Azam University (Pokiston), Qozog‘iston Milliy universiteti (Qozog‘iston), Tojikiston Fanlar akademiyasi (Tojikiston), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, O‘zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda.

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi:<https://ut.ac.ir/en/>; <https://www.istanbul.edu.tr/en/>; <https://www.sorbonne-universite.fr/en/>; <https://www.yale.edu/>; <https://www.uq.edu.au/>; <https://www.msu.ru/>; <https://en.uw.edu.pl/>; <https://www.unibo.it/en/>; <https://www.uni-hamburg.de/>; <https://www.iium.edu.my/>; <https://www.uui.ac.id/en/>; <https://qau.edu.pk/>; <https://www.farabi.university/>; <https://www.amit.tj/>.

Dunyo falsafasi tarixida ilk oʻrta asr Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy taʼlimotlaridagi gumanistik gʻoyalari va ularning bugungi maʼnaviyat siyosati, fuqarolik jamiyati rivoji, inson huquqlari, barqaror taraqqiyotning falsafiy poydevori ekanligi boʻyicha ilmiy natijalar olingan: oʻrta asr Sharq allomalarining fozil shahar, bilimga intilish, axloqiy kamolot bilan bogʻliq gumanistik gʻoyalari ilmiy asoslangan (Istanbul University, Turkiya); Abu Nasr Forobiyning ilmiy-nazariy merosi gumanitar fanlar kesimida falsafiy nuqtayi nazardan asoslangan (University of Tehran, Eron); Ibn Sino asarlaridagi gumanizm, yuksak insoniylik bilan bogʻliq masalalar falsafiy dalillangan (Sorbonne University, Fransiya); dunyoning paydo boʻlishi, shakllanishi va rivojlanishi jarayoni, oʻzaro taʼsir va aloqadorlik masalalari ilmiy asoslangan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); insonning jismoniy tuzilishi, hayoti, tabiat va axloqi ijtimoiy muhitga bogʻliqligi xususidagi tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy qarashlarining mohiyatiga oid gumanistik gʻoyalari dalillangan (University of Hamburg, Germaniya); jamiyat bilan tabiatning ajralmasligi, yaxlitligi, oʻzaro aloqadorligi xususidagi taʼlimotlari ilmiy-falsafiy asoslangan (University of Pennsylvania, AQSh).

Oʻrta asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy taʼlimotlaridagi gumanistik gʻoyalarni oʻrganish boʻyicha quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, gumanistik gʻoyalari taraqqiyotining nazariy-metodologik, falsafiy-konseptual asoslari; Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy va davlat boshqaruv tizimida adolat kafolati va huquqiy mezonlar ratsionalizmi, harbiy ustqurma strategiyasi; Beruniy va Ibn Sino falsafiy taʼlimotida inson hamda uning ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy oʻziga xosliklari, inson kapitali masalasi va uning bugungi insonparvar jamiyat rivojida ahamiyati; oʻrta asr Markaziy Osiyo allomalari insonparvarlik gʻoyalari umumbashariy gumanistik meros rivojiga taʼsiri; gumanizm fenomenining ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimi uchun asosiy mafkuraviy va axloqiy tayanchligi.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Jahonda Markaziy Osiyo allomalari ijodi, faoliyati, manbashunosligi, tarixi, falsafasiga oid qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Gumanizm muammosi, uning ilmiy-falsafiy mazmun-mohiyati, tadrijiy rivojlanishi va oʻziga xos xususiyatlari A.Lambton, X.Blekkem, G.Makdisi, D.Rolz, N.Uolter, M.Faxri, F.Xiors, J.Xourani, A.Arberri, A.Shimmel, Dj.Trimingem, F.Rouzental, A.Mets, A.Knish va boshqalar tomonidan oʻrganilgan<sup>3</sup>; ilk oʻrta asr Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyati va ular yozib qoldirgan asarlar haqida maʼlumotlar oʻrta asr arab olimlari Bayhaqiy, Usaybʼa, Qiftiylarning

---

<sup>3</sup> Lambton A.K.S. State and Government in Medieval Islam. – Oxford: Univ. press, 1981; Blackham H.J. Humanism 2d rev. ed. – New York, International Publications 1. Service, 1976; Makdisi G. Ethics in Islamic Traditionalist Doctrine // Ethics in Islam. Malibu, California: Undena Publications, 1985; Rolz Дж. Теория справедливости. – Новосибирск: НГУ, 1995; Walter N. Humanism. Finding Meaning in the Word. Amherst. – N.Y.: Prometheus Books, 1997; Fakhry M.A. History of Islamic Philosophy. – N.Y.: Columbia Univ. press, 1970; Hiorth F. Introduction to Humanism. – Pune, Indian Secular Society, 1996; Hourani, George. Reason and Tradition in Islamic Ethics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1985; Arberry A.J. Aspects of Islamic civilization. – Cambridge, 2007; Аннемари Шimmel. Мир исламского мистицизма. – М.: Садр, 2012; Тримингэм Дж.С. Суфийские ордены в исламе. – М.: Наука, 1989; Роузентал Ф. Торжество знания: концепция знания в средневековом исламе. – М.: Наука, 1978; Мец А. Мусульманский Ренессанс. – М.: Наука, 1966; Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. Краткая история. – Москва-Санкт-Петербург, 2004.

asarlarida bayon qilingan hamda sharhlangan<sup>4</sup>. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mashhur allomalarning hayoti va ijodiy faoliyati, ularning qalamiga mansub qo'lyozmalar haqidagi ma'lumotlar M.Shteynshneyder, K.Brokkelman, E.Zaxau, M.Mareno, F.Deteritsi, De Bur, A.Qazviniy, A.Arafot, Mexmet Bayrakdar, M.Sharif, M.Sharqoviy, M.Hotamiy, M.Faxriy, M.Xosseyn asarlarida tadqiq etilgan<sup>5</sup>. Amerikalik olim L.Gudman<sup>6</sup> musulmon falsafasidagi gumanizm xususiyatlari haqida puxta asoslangan fikrlar bildirgan kam sonli tadqiqotchilardan biri hisoblanadi. U o'rta asr islom sivilizatsiyasida diniy avtoritarizm kuchayayotgan sharoitda mashhur musulmon mutafakkirlari inson va uning hayoti ma'nosi hamda qadriyatlarini haqidagi bilimlarni izlashda gumanistik, ratsional va ilmiy diskurslarni o'rganish hamda rivojlantirishni davom ettirganligini tushuntirishga harakat qiladi; Ibrohim Madkurning "Musulmon falsafasida Forobiyning o'rni" nomli asari<sup>7</sup>, o'rta asr Sharq mutafakkirlarining hayoti va ilmiy merosi turk olimlari A.Abnan, Hilmi Ziya Ulkek, Nihat Kekliklarning ilmiy tadqiqotlarida Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi allomalarning "falsafiy, diniy, axloqiy, pedagogik, ijtimoiy, siyosiy va huquqiy qarashlari har tomonlama o'rganilgan"<sup>8</sup>; E.Renan, Karra de Vo singari G'arb sharqshunoslarining asarlarida "o'rta asr musulmon allomalari va mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy qarashlari, inson hamda davlatchilik konsepsiyalari o'rganilgan va tahlil qilingan"<sup>9</sup>.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari olimlari, mutaxassisarlari va faylasuflari I.Frolov, Ye.Brizgalina, A.Volobuyev, V.Ribin, I.Petrushevskiy, S.Grigoryan, A.Ignatenko, A.Sagadeyev, Ye.Frolova, A.Bogoutdinov, M.Dinorshoyev, G.Shaymuxambetova, A.Djaxid, A.Kasimjanov, S.Satibekova, N.Kirabayev, M.Raximov, M.Karimovalar tomonidan Markaziy Osiyo allomalari ta'limotidagi gumanizm muammolari o'rganilgan bo'lib, bu ta'limotning asosiy tamoyillari hamda yo'nalishlari mutafakkirlarning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-

<sup>4</sup> Захириддин Байхакий. Татиммат сиван ал-хикма. – Қоҳира, 1908. .1354. لاهور، تنمة سوان الحكمة. لاهور، 1354. ; Усайбъа. Уюн ал-анбо фи табақот ал-атиббо. – Қоҳира, 1882. .1882. عيون الأنبياء في طبقات الأتباء. قاهره، 1882. ; Қифтий. Ахбар ал-улама би-ахбар ал-хукама. – Қоҳира, 1908. .1326. كتاب أخبار العلماء بأخبار الحكماء. قاهره، 1326. القفطى.

<sup>5</sup> Steinschneider M. AL Farabi des arabeschen Philosophen. Leben und Schriften. – Sanct-Petersbourg, 1869; Brockelmann K. Geschichte der Arabischen Literature Weimar, 1898; Sachau E. Einleitung в кн. "Chronologie orientalischer Volker von Alberuni" hrsg. von Dr. E.Sachau. – Leipzig, 1878; Mehren M.A.F. Hay ben Yagzan // Allegorie mustique traduite et en partie commentee par M.A.F.Mehren. – Louvain, 1886; Deterici F. Alfarabis philosophische Abhandlungen. – Zeiden, 1892; De Boer. History of philosophy in Islam. – London, 1903, 1933, 1961; Enciclopedia of Islam. New edition. – Leiden-London, 1995; Абдулғаффор Қазвиний. Нигористони Ғаффорий. – Бомбей, 1958; Арафот А. Ал-фалсафат ал-исламия ват-танвир // Ал-фалсафат ал-исламия ва бина ал-инсан алмаъасир. – Қоҳира, 1997. (1997) القاهرة – عرفات، // الفلسفة الإسلامية و التنوير. عرفات، القاهرة (1997) ; Доктор Мехмет Байрақдар. Ислам фелсефесийа кириш. – Анкара, 2003; Sharif M.M. History of Muslim Philosophy. T. 2. – Wiesbaden, 1963; Мухаммад Шарқовий. Ал-фалсафат ал-исламия ва таквин ал-хисс ан-нақдий. – Қоҳира, 1997. (1997) القاهرة -النقدى الحسن تكوين و الفلسفة الشرقاى محمد (1997) ; Хотамий Саййид Мухаммад. Ислам тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минҳож, 2003; Фахрий М. Сайре фалсафа дар эслои. – Техрон, 1983. (1983) تهران، – (سيرى فلسف در اسلام. فخرى.م.) ; Hossein N.S. Scince and civilization in islam. – Cambridge, 1968.

<sup>6</sup> Goodman L.E. Islamic Humanism. – Oxford: University Press, 2003.

<sup>7</sup> Ibrahim Madkour. Ga place d'al Farabi. Dans Letcole Philosophigane Musulmane. – Paris, 1934.

<sup>8</sup> Abnan A. Farabi. Islam ansiklopedisi. 4 t. C. 37. – Istanbul, 1947. – S. 451-468; Hilmi Ziya Ulkek. Islam felsefesi tarihi. T. 1. – Istanbul, 1957; Nihat Keklik. Islam mantig tarihi va Farabi mantigi. – Istanbul, 1970.

<sup>9</sup> Renan E. Averroes et Averroisme. – Paris, 1852; Carra De Vaux. Al Farabi. The Enciclopedia of Islam, 1927. V. 2.

axloqiy qarashlarida singib ketganligi hamda gumanistik missiya bilan bog‘liq masalaga e‘tibor qaratilgan<sup>10</sup>.

O‘zbekistonda Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri allomalarining ijtimoiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy, axloqiy-estetik hamda gumanistik qarashlariga oid ko‘plab fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.M.Mo‘minov, M.M.Xayrullayev, H.Aliqulov, M.N.Boltayev, P.G.Bulgakov, A.L.Kaziberdov, R.Nosirov, A.J.Sharipov, O.Fayzullayev, B.T.To‘ychiyev, B.O.To‘rayev, A.Choriyev, M.Jakbarov, G.T.Mahmudova, D.I.Fayzixodjayeva, F.N.Juraqulov, F.A.Muhitdinova, G.K.Masharipova, J.K.Yusubov, Sh.N.Nurova kabi olimlar ishlarida o‘rganilgan<sup>11</sup>. Xususan, H.Aliqulov muharrirligida nashr etilgan II jildlik “O‘zbekiston falsafasi tarixi” kitobida Markaziy Osiyo gumanistik merosining tadrijiyligi, rivojlanish jarayoni, muhim xususiyatlari va asosiy bosqichlari tahlil qilingan<sup>12</sup>. Unda o‘rta asrlarda diyorumizda yashab ijod qilgan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlarning insonparvarlik qarashlari bayon qilingan va bugungi kundagi ilmiy-ma‘rifiy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

---

<sup>10</sup> Фролов И.Т. О человеке и гуманизме: Работы разных лет. – М., 1989; Брызгалина Е.В. Индивидуальность человека. – М.: МГУ, 2000; Волобуев А.В. Концепт человека в антропологии ислама. Дисс. на соиск. учен. степ. к.ф.н. – М., 2012; Рыбин В.А. Гуманизм как этическая категория. – М.: Логос, 2004; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Л.: ЛГУ, 1966; Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: АН СССР, 1960; Игнатенко А.А. В поисках счастья: общественно-политические воззрения арабо-исламских философов средневековья. – М.: Мысль, 1989; Сагадеев А.В. Восточный перипатетизм. – N.Y.: The Edwin Mellen Press, 1999; Фролова Е.А. Арабская философия. Прошлое и настоящее. – М.: Языки славянских культур, 2010; Богоутдинов А. Очерки по истории таджикской философии. – Душанбе: Таджгосиздат, 1961; Диноршоев М. Натурфилософия Ибн Сины. – Душанбе: Ирфон, 1985; Шаймухамбетова Г.Б. Арабоязычная философия средневековья и классическая традиция. – М.: Наука, 1979; Джахид А.М. Некоторые вопросы теории государства в воззрениях Абу Насра ал-Фараби. – Душанбе: ТаджГУ, 1963; Касымжанов А.Х. Абу Наср аль-Фараби. – М.: Мысль, 1982; Сатыбекова С.К. Гуманизм аль-Фараби. – Алма-Ата: Наука, 1975; Кирабаев Н.С. Социальная философия мусульманского Востока. – М.: УДН, 1987; Рахимов М.Х. Антропология Абу Али ибн Сины. Дисс. ... д-ра. философ. наук. – Душанбе, 2004; Каримова М. Этические проблемы в антропологии Ибн Сины. Дисс. ... канд. философ. наук. – Душанбе, 2009.

<sup>11</sup> Мўминов И.М. Великий энциклопедист из Хорезма. – М.: Знание, 1974; Хайруллаев М.М. Уйғониш даври ва Шарқ мутафаккири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1971; Аликулов Х. Гуманистик мерос ва шахс маънавий камологи. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ, 2006; Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, ученый-энциклопедист средневекового Востока. – Казань: Мастер Лайн, 1999; Булгаков П.Г. Жизнь и труды Бируни. – Ташкент: Фан, 1972; Казибердов А.Л., Муталибов С.А. Абу Наср ал-Фараби. – Ташкент: Фан, 1986; Носиров Р. Абу Али ибн Синонинг табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Тошкент, 2009; Шарипов А. Великий мыслитель Абу Райхан Беруни. – Ташкент: Ўзбекистон, 1972; Файзуллаев О. Проблемы противоречия в трудах классиков естествознания и философии Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1974; Тўйчиев Б.Т. Беруний ва Ибн Сино илмий-фалсафий ёзишмалар. – Тошкент: Ijod-print, 2020; Тўраев Б.О. Беруний – инсониятнинг буюк мутафаккири. – Тошкент: Фан зиёси, 2023; Чориев А. Инсон фалсафаси: Инсон тўғрисидаги фалсафий фикрлар тараққиёти. – Тошкент, 2007; Жакбаров М. IX-XII аср Мовароуннахр фалсафий фикрида ижтимоий идеал ва комил инсон муаммоси. Фалс. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2000; Маҳмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Noshir, 2015; Файзиходжаева Д.И. IX-XII асрларда Марказий Осиё мутафаккирларининг мантиққа оид қарашларида исботлаш муаммолари. Фалс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1999; Журакулов Ф.Н. Абу Райхон Беруний табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий меросининг Ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши. Фалс. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007; Мухитдинова Ф.А. Шарқ Уйғониш даври мутафаккирларининг сиёсий-ҳуқуқий таълимотлари. Юрид. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2010; Машарипова Г.К. Хоразм Маъмур академияси алломалари табиий-илмий меросининг ижтимоий-фалсафий тафаккур тараққиётига таъсири. Фалс. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2021; Yusubov J.K. Abu Nasr Forobiy ma'naviy-axloqiy ta'limotining Sharq va G'arb madaniy sivilizatsiyasiga ta'siri. Fals. fan. d-ri ... diss. – Tashkent, 2024; Nurova Sh.N. Ibn Sino ma'naviy merosida inson masalasi: qiyosiy-falsafiy tahlil. Fals. fan. b. fals. dok. ... diss. – Buxoro, 2024.

<sup>12</sup> Ўзбекистон фалсафаси тарихи. I жилд. – Тошкент: Noshir, 2013; Ўзбекистон фалсафаси тарихи. II жилд. – Тошкент: Mumtoz so'z, 2017.

O'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy, falsafiy adabiyotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, ilk o'rta asrlar davri Markaziy Osiyo alloma va mutafakkirlari hayoti, ijodiy faoliyati va ilmiy merosi xususidagi boy ma'lumotlar o'rta asrlarda yozilgan ko'pgina qo'lyozma manbalarda saqlanib, bizning davrimizga qadar yetib kelgan. Tadqiqotimizda O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari fondidagi quyidagi manbalardan foydalanilgan: Forobiy. Majmu' Abu Nasr al Forobiy (مؤلفات الفارابي). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №11125; Forobiy. Risola at-tahsil as-saodat (كتاب تحصيل السعادة). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №2865; Forobiy. Kitab aro' ahl al-madina al-fozila (كتاب آراء أهل المدينة الفاضلة). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №10049; Juzjoniy. Ibn Sinoning tarjimai holi (ترجمة ابن سينا). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №2385/XI; Abu Ali Ibn Sino. Risola fi aqdam al-ulum al-aqliy (أقسام العلوم العقلية). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №2213/III; Abu Ali Ibn Sino. Risola tadbir-e manzil (رسالة تدبير المنزل). Toshbosma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №11763; Ibn al-Qiftiy. Kitab axbar al ulama bi axbar al hukama (كتاب أخبار العلماء بأخبار الحكماء). Qo'lyozma O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, inv. №12712.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU, Falsafiy tadqiqotlar o'quv-ilmiy kompleksi, I-2011-11-1/2 raqamli "O'zbekiston falsafasi tarixi (3 tomlik, o'zbek tilida) asarining I tomini tayyorlash va nashrdan chiqarish" grant mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** IX-XII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy ta'limotlaridagi gumanistik g'oyalarning mohiyatini ochib berish va uning falsafiy tafakkur tarixidagi ahamiyatini hamda zamonaviy falsafaning rivojlanishidagi o'rnini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

gumanistik g'oyalar taraqqiyotining nazariy-metodologik, falsafiy-konseptual asoslarini tahlil qilish;

Forobiy falsafiy tizimida ijtimoiy qonuniyatlar paradigmasining fanlararo yondashuv kesimida tahlil etilganligini ilmiy manbalar asosida yoritish;

Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruvi tizimida harbiy ustqurma strategiyasini shakllantirish masalalarini chuqur o'rganish, uning bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar jarayonlariga ta'sirini tahlil qilish;

Beruniy va Ibn Sino gumanizmi kontekstida inson kapitali muammosi, uning zamonaviy ta'lim-tarbiya paradigmalarga hamohang ekanligini aniqlash;

buyuk ajdodlar merosining ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi ahamiyati, Yangi O'zbekistonda xalqchil va insonparvar davlat barpo etish jarayonlariga ta'siri hamda istiqbollari ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** Sharq va G'arb gumanizm-insonparvarlik ta'limotining nazariy-konseptual mohiyati tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** o'rta asr Markaziy Osiyo Uyg'onish davri ilmiy-falsafiy ta'limotlaridagi gumanistik g'oyalarning mohiyatini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda tarixiylik va mantiqiylik, analiz va sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, analogiya, induksiya va deduksiya, tizimlash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

gumanizmning ijtimoiy adolat paradigmasi sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun metodologik asosligi, Yevropa Uyg'onish davrining g'oyaviy asosi bo'lishi bilan birga, vorisiylik asosida Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkurining tadrijiy taraqqiyotida odamiylik, insonparvarlik bilan yo'g'rilgan hayot tarzini taqozo etuvchi jarayon ekanligi ilmiy asoslangan;

Forobiyning jamiyat hayotida adolat kafolati va huquqiy mezonlar ratsionalizmi, fanlar tasnifi va ma'naviy-axloqiy yuksalish haqidagi g'oyalarining Yangi O'zbekistonning xalqchil hamda insonparvar davlat konsepsiyasi maqsadlari bilan hamohangligi adolat, bilim va axloqiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan ochib berilgan;

Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruvi tizimida harbiy ustqurma strategiyasini shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarida o'z aksini topgan "Vatan-davlat-jamiyat" munosabatlari masalasining mamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovar ruhini oshirish, ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilganligi asoslangan;

Beruniyning madaniy relyativizm va Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlarga asoslangan gumanizm tamoyili, xususan, inson kapitali muammosining zamonaviy paradigmalariga mosligi, yuksak axloqiy fazilatlar, ilm va aqliy kamolot birligi har qanday ta'lim-tarbiyaning ideali ekanligi dalillangan;

Sharq gumanizmining ilg'or an'analari bilim va shaxs konsepsiyasi sifatida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida insonparvarlik qadriyatlari hamda milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda, barkamol insonni tarbiyalashda g'oyaviy asosligi ochib berilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalaridan yoshlarning ilmiy kompetentligini insonparvarlik tamoyili asosida shakllantirish bo'yicha ta'limning barcha darajalarida ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlarni o'qitishni takomillashtirish maqsadida ilm-fan, ta'lim, ma'naviyat va din sohasidagi hukumat siyosati dasturlarini ishlab chiqish jarayonida foydalanish imkoniyati yaratilgan;

tadqiqot natijalaridan yoshlarda kreativ fikr yuritish qobiliyatini shakllantirishda, shaxsning intellektual kamoloti va ijtimoiylashuvida o'rta asr Markaziy Osiyo allomalarining gumanistik g'oyalaridan foydalanishning innovatsion usul hamda vositalarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin;

tadqiqot natijalari mamlakat fuqarolari uchun “O‘rta asr Markaziy Osiyo allomalarining falsafiy-huquqiy va siyosiy-harbiy merosi”ga bag‘ishlangan keng qamrovli hamda saviyali ma’lumotlar, ishlanmalar, platformalarni tayyorlashda e’tiborga olinishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** respublika va xalqaro ilmiy konferensiyalar to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr etilgan monografiya va risolalardagi xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosalarning falsafa tarixi tahlili, jumladan, o‘rta asr Sharq mutafakkirlari ta’limotining nazariy masalalarini o‘rganishga oid ilmiy tadqiqot ishlarida, O‘zbekistonda, qolaversa, dunyo miqyosida ijtimoiy-axloqiy va siyosiy-huquqiy qarashlar rivoji, falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta’siri zamonaviy yoshlarda intellektual, ma’naviy va axloqiy rivojlanishni shakllantirish uchun Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk allomalar qarashlari dolzarbligining isbotlanganligi, “Falsafa”, “Falsafa tarixi”, “Pedagogik ta’limotlar tarixi”, “Siyosatshunoslik”, “Tarix”, “Dinshunoslik” fanlari mazmunining nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalardan o‘rta asr Markaziy Osiyo allomalari qarashlarini navbatdagi ilmiy ishlarda faylasuflar, qomusiy allomalar g‘oyalari bilan qiyosiy tahlil qilishda, Madaniyat va “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlarining tarbiyalash faoliyatida, O‘zbekiston Respublikasining barcha harbiy kuch tuzilmalarida o‘tkaziladigan ma’naviy-ma’rifiy tayyorgarlik mashg‘ulotlari mavzularini yangi materiallar bilan boyitishda va Sharq mutafakkirlari gumanistik merosining taqdimotiga oid ma’ruzalarda hamda mavzuga oid o‘quv-metodik qo‘llanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan dalillanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** IX-XII asrlar Markaziy Osiyo ilmiy-falsafiy ta’limotlaridagi gumanistik g‘oyalarning mohiyatini o‘rganish va yoritish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

gumanizmning ijtimoiy adolat paradigmasi sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun metodologik asosligi, gumanizm tamoyili Yevropa Uyg‘onish davrining g‘oyaviy asosi bo‘lishi bilan birga, vorisiylik asosida Markaziy Osiyo ijtimoiy-falsafiy tafakkurining tadrijiy taraqqiyotida odamiylik, insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgan hayot tarzini taqozo etuvchi jarayon ekanligi ilmiy asoslanganligiga oid taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Ibtido”, “Tarix va yangi talqin”, “Tarix muallim” kabi ko‘rsatuvlarining ssenariylari tayyorlashda foydalanildi (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston teleradiokanali” davlat muassasasi tomonidan berilgan 2024-yil 17-dekabrda 06-28-1784-sonli dalolatnoma). Mazkur ssenariylar buyuk ajdodlarimiz merosining o‘rganilmagan qirralarini xalqimizga yetkazishda, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda, ularda vatanparvarlik,

insonparvarlik hamda qat'iy hayotiy pozitsiyani shakllantirish uchun xizmat qilgan va ijobiy natijalar bergan;

Forobiyning jamiyat hayotida adolat kafolati va huquqiy mezonlar ratsionalizmi, fanlar tasnifi va ma'naviy-axloqiy yuksalish haqidagi g'oyalarining Yangi O'zbekistonning xalqchil hamda insonparvar davlat konsepsiyasi maqsadlari bilan hamohangligi adolat, bilim va axloqiy qadriyatlar nuqtayi nazaridan olib berilganligiga oid taklif hamda tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasi tizimidagi Temurbeklar maktabi, harbiy musiqa akademik litsey, o'quv markazlari, Jamoat xavfsizligi universitetida o'qitiladigan huquqiy va siyosiy fanlarning mavzularini yangi materiallar bilan boyitishda, shaxsiy tarkib bilan tashkillashtiriladigan "Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik" mashg'ulotlari, Tarbiyaviy soatlar bo'yicha mavzularni takomillashtirishda, shuningdek, "Xalq va armiya – bir tanu bir jon" tamoyiliga asoslangan holda, davlatimizning bu boradagi oqilona siyosatini xalqimizga, eng avvalo, yoshlarga yetkazish bo'yicha olib boriladigan amaliy ishlarda, tadbirlarda keng foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Milliy Gvardiyasining 2025-yil 23-yanvardagi 1/1-804-sonli dalolatnomasi). Olingan natijalar shaxsiy tarkibda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularning tarixiy ongi, huquqiy madaniyati va ertangi kunga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan;

Abu Nasr Forobiyning davlat boshqaruvi tizimida harbiy ustqurma strategiyasini shakllantirish, harbiy-vatanparvarlik g'oyalarida o'z aksini topgan "Vatan-davlat-jamiyat" munosabatlari masalasining mamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish, ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lib xizmat qilganligiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida tashkillashtiriladigan Ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari bo'yicha mavzular takomillashtirilib, amaliyotga qo'llanildi (O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tomonidan berilgan 2024-yil 27-dekabrda №14/3763-sonli dalolatnoma). Tadqiqot natijalarining nazariy xulosalari shaxsiy tarkibda insonparvarlik, vatanparvarlik, ajdodlar merosiga sodiqlik tuyg'ularini mustahkamlashda, ularning milliy va jangovar ruhini yanada yuksaltirishga yordam bergan;

Beruniyning madaniy relyativizm va Ibn Sinoning axloqiy qadriyatlarga asoslangan gumanizm tamoyili, xususan, inson kapitali muammosining zamonaviy paradigmalarga mosligi, yuksak axloqiy fazilatlar, ilm va aqliy kamolot birligi har qanday ta'lim-tarbiyaning ideali ekanligi asoslanganligiga oid tavsiya hamda takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlari hamda dunyoqarashini yuksaltirish bo'yicha "Buyuk ajdodlarga munosib voris bo'laylik", "Biz ulug'allomalar izdoshlarimiz", "Uchinchi Renessans farzandlari" mavzularida amalga oshiriladigan targ'ibot-tashviqot tadbirlarida foydalanilgan (Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025-yil 20-yanvardagi 02/01/19-68-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot natijalari Yangi O'zbekiston yoshlarida insonparvarlik, yurt taqdiriga daxldorlik, buyuk ajdodlar

merosiga sadoqat tuyg'ularini yuksaltirishga va qat'iy fuqarolik pozitsiyani yanada mustahkamlashga erishilgan;

Sharq gumanizmining ilg'or an'analari bilim va shaxs konsepsiyasi sifatida Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida insonparvarlik qadriyatlari hamda milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda, barkamol insonni tarbiyalashda g'oyaviy asosligiga oid xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti o'quv-tarbiya jarayonida keng foydalanilgan. Xususan, tadqiqot natijalari asosida institut tinglovchilari uchun "Birinchil Sharq Uyg'onish davri allomalarining gumanistik merosi" fanini o'qitishni yo'lga qo'yishda muhim manba bo'lib hisoblangan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi huzuridagi Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutining 2025-yil 7-yanvardagi №01-12/04-sonli dalolatnomasi). Tadqiqot natijasi yoshlar qalbi va ongida yuksak insonparvarlik hamda bag'rikenglik g'oyalarini o'zlashtirish, Prezidentning besh muhim tashabbusi doirasidagi kompleks chora-tadbirlar, ya'ni O'zbekiston yoshlarining o'rta asr Markaziy Osiyo allomalari merosini chuqur o'rganish borasidagi kitobxonlikni yanada takomillashtirish jamiyat ma'naviy-axloqiy rivojlanishining muhim omili sifatida xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 10 dan ortiq respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha 20 dan ortiq ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 5 tasi xorijiy va 15 tasi respublika jurnallarida maqolalar nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 266 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhlangan, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ko'rsatilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Gumanistik g'oyalar taraqqiyotining nazariy-metodologik, falsafiy-konseptual asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida gumanistik – insonparvarlik g'oyalar taraqqiyotining nazariy-metodologik, falsafiy-

konseptual asoslari gumanizm tushunchasining ijtimoiy adolat paradigmasi sifatida ijtimoiy-gumanitar fanlarda o'rganilishining falsafiy komparativistikasi kesimida tahlil etilgan.

Insoniyat taraqqiyoti davomida, aql idrokli odamdan boshlab, zamonaviy dunyoqarash negizida insonning o'zligini anglash, insoniy mohiyatni tushuntirish doimo dolzarb bo'lib kelgan. Tafakkur rivoji insoniyatni yuksak qadriyat bo'lmish insonparvarlik g'oyalariga yetakladi. Barcha davrlarda o'zining kimligini, o'zligini bilishga intilgan inson aynan Yevropa Uyg'onish davrida "antropotsentrizm" tamoyilini gumanizm paradigmasiga aylantirgan.

Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti haqidagi fikr-mulohazalar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson muammosi barcha zamonlarda ham, barcha hududlarda ham falsafaning asosiy mavzusi bo'lib keldi. Biroq mazkur muammo faqat falsafaning tadqiqot obyekti bo'libgina qolmay, balki boshqa fanlarning ham diqqat markazida bo'ldi. Boshqa fanlar insonning ma'lum bir qismini, ayrim xususiyatlarini o'rgangan bo'lsa, falsafa insonni bir butun, yaxlit o'rganishga harakat qildi. Boshqacha aytganda, falsafa insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini, uning olamdagi tirik maxluqotlar orasidagi o'rnini, boshqa jonzotlardan farqini tushuntirishga urindi. Insonning jismi, ruhiyati, ma'naviyati orasidagi o'zaro aloqadorlik mexanizmi mohiyatini ifoda etuvchi qonuniyatlarni aniqlashga intildi. Insonning olamga bo'lgan munosabatini, uning atrof-muhitni, hatto o'zini-o'zi o'zgartira olish yo'llari va uslublarini, o'z taqdirini o'zi belgilovchi buyuk mavjudot ekanligini har tomonlama tahlil qildi. O'zi haqida, o'zining ruhiy-ma'naviy kamoloti haqida turli g'oyalar, ta'limotlar yaratdi. Shu tariqa insonning o'zi to'g'risida yaratgan g'oyalari ham zamonlar o'tishi bilan o'zgarib, boyib yoki eskirib bordi.

Bizning fikrimizcha, insonparvarlik g'oyasi faqat Italiya yoki Yevropaga xos hodisa bo'lmay, butun insoniyatning madaniy taraqqiyoti davrlarini ham qamrab oluvchi tushunchadir. Ammo har bir xalq va har bir tarixiy davrning o'zicha insonparvarlik konsepsiyasi bo'lgan.

Shu bois, gumanizm – tarixiy tushuncha bo'lib, u insoniyat taraqqiyoti davomida doimo yangi mazmun bilan boyitilib, to'ldirilib borilgan. Insonparvarlik g'oyasining transformatsiyasi – kuchayishi, boyitilishi har bir davrda va har qaysi jamiyatning muayyan tabaqalari o'rtasida shakllangan ijtimoiy ideal, gumanistik g'oyalarning keng tarqalishi bilan bog'liq bo'lgan. Insoniyat tarixiy va madaniy taraqqiyotining har bir bosqichida insonparvarlik g'oyalari turlicha talqin qilingan. Insoniyat bilimlari ko'payib, sivilizasiya yutuqlari kuchayishi bilan birga gumanizm, insonparvarlik tushunchasining mazmuni yanada ravshanlashib, tobora revolyutsionlashib, chuqurlashib borgan<sup>13</sup>.

Sharq Uyg'onish davri mutafakkirlari inson ruhiy olamida Aqlni – podshoh deb biladilar va insonni Aql-Idrok sohibi bo'lgani uchun e'zozlash zarur, deb hisoblaydilar. Mohiyat e'tibori bilan, gumanizm ikki narsaga – Aql-Idrokka va qalbning go'zal intilishlariga tayanadi. Bunday talqin qilinganda gumanizm,

---

<sup>13</sup> Петросян М.П. Гуманизм. – М., 1967. – Б. 7-34.

insoniylik – axloqiy tushuncha bo‘lib, unda insonni, uning manfaatlarini himoya qilish, uning fazilatlarini va ruhiy erkinligini qadrlash asosiy o‘rin tutadi.

Insoniylik, gumanizmni mafkura, ijtimoiy-siyosiy qonuniyat sifatida tushunish inson yashayotgan ijtimoiy muhitni, moddiy va ma‘naviy hayot sharoitlarini takomillashtirishni taqozo qiladi. Shu ma‘noda gumanizm – insoniyatning ming yillar davomidagi taraqqiyoti jarayonida ilgari surgan buyuk g‘oyalarning eng a‘losi, deb qarash zarur. Gumanizm g‘oyasi insoniyat o‘zining ijtimoiy vazifalarini, ideallarini, qadriyatlarini anglashdan kelib chiquvchi buyuk ma‘naviy tajribasi mahsulidir. Gumanizm idealining mana shu xususiyatlari u yoki bu darajada o‘rta asrlar Sharq Uyg‘onish davri mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlarida mujassamlangan.

Shu o‘rinda Sharq Uyg‘onish madaniyatining o‘ziga xos belgilari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

dunyoviy ilmlarga intilish, din va diniy bilimlarni jamiyat, insonlar manfaati nuqtayi nazaridan talqin etish;

turli xalqlarning madaniy-ma‘naviy merosi, o‘tmish madaniy qadriyatlaridan (arab, eron, yunon madaniyati boyliklari) foydalanish;

tabiatni, mavjud hayotni, mavjudotni o‘rganishga qiziqishning kuchayishi, uning sirlarini ochishga va undan foydalanishga intilishning ortib borishi, shu munosabat bilan tabiatshunoslik ilmlarining rivojlanishi;

bilishda aqlni mezon deb bilish, aqliy bilish, ratsionalistik usul, ilmiylik rolining oshib borishi;

insonga muhabbat, uning axloqiy, aqliy xislatlarini, qobiliyatlarini o‘rganish va fazilatlarini ochib berishga intilish, mantiq ilmiga katta e‘tibor berish, komil insonni tarbiyalash, yetuk fozil jamoa haqidagi fikrlarni asoslab berish;

diniy tasavvur, diniy ta‘limotlar rivojida diniy-axloqiy mavzuning ustuvorligi, inson xulqi, manfaatlarining diniy g‘oyalarda yetakchi mavzuga aylanishi, ichki ma‘naviy kamolot, Allohga subyektiv ichki mukammallashuv, ma‘naviy-ruhiy ko‘tarilish, yuksalish yordamida erishuv va uning sifatlariga muyassar bo‘lishga qaratilgan faoliyat;

og‘zaki va yozma so‘zga katta e‘tibor, uning ijtimoiy-axloqiy qudratini kuylash, ta‘riflash, she‘riyat, badiiy madaniyatning yuksak rivoji, so‘z san‘ati, ritorika bilan shug‘ullanish madaniylikning muhim belgisiga aylanib borishi. Bu xislatlar o‘sha davr ilg‘or ma‘naviyatining xarakterli xususiyatiga aylandi.

Qayd etilgan belgilar O‘rta va Yaqin Sharqdagi Uyg‘onish madaniyatining boshqa mintaqqa, xususan, Yevropadagi Uyg‘onish madaniyati mazmuni bilan yaqinligini, o‘xshashligini ko‘rsatadi.

Gumanistik g‘oyalar va an‘analari, ularning rivojlanish jarayonlari va qonuniyatlari insoniyat erishgan eng buyuk tafakkur ne‘matidir. Insonparvarlik va jamiyatni insonparvarlashtirish o‘zida ajdodlarimizning ko‘p asrlar davomida kishilararo munosabatda shakllangan odamiylik xislatlari, yuksak fazilatlarini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini mujassamlashtirgan.

Gumanistik an‘analarni puxta o‘zlashtirgan holdagina jamiyatni insonparvarlashtirish va kishilar ongiga odamiylik, mehr-oqibat, muloyimlik,

bag'rikenglik, ezgulik, tinchlik va osoyishtalik, birodarlik, ahillik kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirish mumkin. Xalqimizga azaldan kattalar va otionalarni hurmat qilish, o'z Vataniga mehr-muhabbat, boshqa millat va elatlarga xayrixohlik ko'rsatish, ochiq ko'ngillilik, boshqalarning g'amiga, qayg'u-tashvishiga sherik bo'lish, o'zaro yordam, mehmondo'stlik, mehnatsevarlik va boshqa insonparvarlik qadriyatlari xos bo'lib kelgan. Ayniqsa, Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan alloma va faylasuflarning biz uchun ibrat bo'lishga arziydigan gumanistik qarashlari, an'analari hozirgi kunda yosh avlodni insonparvar shaxs qilib tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining bebaho ma'naviy merosi, umuminsoniy mazmunga ega bo'lgan gumanistik qarashlari mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida insonparvarlik qadriyatlari va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishda, barkamol insonni tarbiyalashda g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Falsafaning tarkibiy qismi bo'lmish insonparvarlik o'zining uzoq rivojlanish tarixiga ega. Jamiyatning rivojlanishi, madaniyat va ma'naviyatning yuksalishi, xalq moddiy ahvolini yaxshilanib borishi, hukmdorlarning mamlakatni odilona boshqaruvi, xalqning g'am-tashvishini o'ylashi, ularga mehr-shafqatli bo'lishi – bularning hammasi kishilararo munosabatda insonparvarlikning qaror topishi hamda kuchayishiga olib kelgan. Insonparvarlik, gumanizm ma'naviyatning boshqa sohalarida bo'lganidek, vorisiylik asosida taraqqiy etgan. Bir davrda yoki tuzumda gumanizm sohasida erishilgan yutuqlar, tajribalar keyingi avlodlar uchun bilim manbai bo'lib xizmat qilgan. Insonparvarlik ijtimoiy taraqqiyotning turli bosqichlarida rivojlanib borgan, davr va zamonlar o'tishi bilan insonparvarlik qadriyatlari o'sib hamda yig'ilib borgan. Insonparvarlikdagi mana shu vorisiylik, uzluksizlik tarixiy taraqqiyotning hamma davrlariga xos bo'lib, hozirgi mustaqillik sharoitida insonparvarlik rivoji uchun g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Buni ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan betakror gumanistik merosda o'z aksini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Insonparvarlikning kurtaklari qadimgi davrlarga borib taqalib, u haqdagi fikrlar yozma manbalarda, O'rxun-Enasoy yozuvlarida, turli afsonalar va xalq og'zaki ijodining nodir namunalari ko'rinishida bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestada insonparvarlik to'g'risidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. U qadimgi Turon, Eron, Turkiya, Afg'oniston, Hindiston va boshqa mamlakatlarga keng tarqalgan. Avesta O'rta Osiyo va unga qo'shni bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy hamda ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, urf-odati, rasm-rusum va marosimlari, geografik va tabiiy sharoiti haqida boy ma'lumot beradi. Unda astronomiya, falsafa, axloqshunoslik, tibbiyot va geografiyaga oid fikrlar ko'p. Avesta faqat diniy manba bo'lib qolmasdan, balki unda dunyoviy muammolar keng yoritiladi. U beshta kitobdan iborat bo'lib, bugungi kungacha uning to'rttasi: "Yasna", "Yasht", "Vendidod", "Vispard" yetib kelgan.

Zardushtiylik qoidalariga ko'ra, insonning barkamolligini belgilashda, uning nafaqat tashqi qiyofasi, balki ma'naviy dunyosi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham Ahura Mazda tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida

ko‘proq qayg‘uring, chunki ma‘naviy dunyongiz qancha musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham farovon bo‘lib boraveradi, deb tushuntiradi. Avestada ta‘kidlanishicha, insonning ma‘naviy yetukligi uning do‘st-u birodarlariga sadoqati, kechirimli bo‘lishi, johillarning qalbini yaxshilik nuri bilan to‘ldirishi, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarishi kabi mezonlar bilan o‘lchanadi.

Zardushtiylik insonparvarligi – hayotiy gumanizm. U shunchaki ideal emas, balki adolatning ijtimoiy shart-sharoitlari va hayotiy ehtiyojlar bilan yo‘g‘rilgan ideal. Yasnada ko‘proq chorvador mehnati haqida so‘z yuritiladi, Videvdatda esa dehqon mehnatining gumanistik mohiyati madh etiladi, bu hol zardushtiylarning insonparvarlik g‘oyasining ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar va rivojlanishga muvofiq ravishda evolyutsiyasidan dalolat beradi<sup>14</sup>.

Insonparvarlikning yuksalishida Turk hoqonligi va undan bizning davrimizgacha saqlanib qolgan turkiy bitiklar yoki O‘rxun-Enasoy yozuvlari muhim o‘rinni egallaydi. Turkiy bitiklar yoki yodnomalar ko‘p bo‘lgan. O‘rxun bitiklari guruhiga kiruvchi To‘nyuquq bitigida turkiylarning dushman qabilalariga qarshi qahramonona kurashi, To‘nyuquqning donoligi, tadbirkorligi, jasurligi tasvirlanadi. Bitiktoshda keltirilishicha, To‘nyuquq erkinlikni oliy ne‘mat deb biladi. U erkinlik o‘zicha kelmasligini, Tangrining marhamati emasligini, balki kurashda qo‘lga kiritilishini ta‘kidlaydi. Turk hoqonligini tiklash – erkinlikka yo‘l ochib beradi.

Enasoy yozuvlarida yozilgan bitiklarda esa shijoatkorlik, mardlik, turk xalqining o‘z ona tuprog‘iga muhabbati va sadoqati, kishilar o‘rtasidagi do‘stlik, hamkorlik, insonga bo‘lgan hurmat tasvirlanadi. Bu yozma yodgorliklarda chorvachilik va ovchilik bilan shug‘ullanuvchi turk xalqining turmush tarzi, urf-odat, xulq-odobi, odamiyligi, diniy marosimlari haqida ma‘lumot beriladi.

Markaziy Osiyoda gumanistik ta‘limotlarning shakllanishi va rivojlanishida islom dinining o‘rni beqiyosdir. Islom dini inson va insonparvarlik masalasiga alohida e‘tibor qaratadi. Qur‘oni Karimda insonning Alloh tomonidan yaratilgani, uning yashashdan maqsadi, boshqa jonzoqlar ichida xalifa ekani, uning bu dunyoda qiladigan xayrli ishlari, solih amallari, insonparvarligi, musulmonlarning bir-biriga yordami, tuban va yaramas illatlarni qoralashi va shunga o‘xshash ko‘plab masalalar haqida fikr yuritiladi.

Qur‘oni Karimda dunyoviy masalalarga katta e‘tibor beriladi. Inson oxiratda do‘zax azoblaridan forig‘ bo‘lib, jannatda rohat va farog‘atda bo‘lishni istasa, taqvodor, iymonli va e‘tiqodli bo‘lish bilan birga insonparvarlik, ezgulik, yaxshi va solih amallar bilan mashg‘ul bo‘lishi, xayr-ehson qilishi, muhtoj va g‘ariblarga yordam berishi, o‘zgaralar bilan hamjihatlikda yashashi lozim.

Fikrimizcha, bugungi kunda xalq orasida, ayniqsa, yoshlar orasida tarix sinovlaridan bezavol yetib kelgan gumanistik qadriyatlarni keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiq. Bunda xalqimizga xos bag‘rikenglik, saxiylik va insonparvarlik g‘oyalarini tarannum etish, turli din va millatlar o‘rtasida totuvlik tamoyillarini keng targ‘ib qilish, mamlakatlar o‘rtasida hamjihatlik va birdamlikni mustahkamlash, umuminsoniy merosni asrab-avaylash yo‘lida hamkorlikni kuchaytirish zarur.

---

<sup>14</sup> Махмудова Г.Т. Авестонинг фалсафий моҳияти. – Тошкент: Noshir, 2015. – Б. 259.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Forobiy falsafiy tizimida ijtimoiy qonuniyatlar paradigmasining fanlararo yondashuv kesimidagi tahlili”** deb nomlanadi. Unda Forobiy falsafiy merosida markaziy o‘rinni egallagan – adolat kafolati va huquqiy mezonlar ratsionalizmi, fanlar tasnifi va ma’naviy-axloqiy yuksalish g‘oyasi, davlat boshqaruvi tizimida harbiy ustqurma strategiyasini shakllantirish masalalari tahlil qilingan.

Bashariyatning ulug‘ mutafakkiri Forobiy falsafiy ta’limotida inson muammosi va shu bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan jamiyatni mukammallashtirish, fozil jamoa qurish, insoniyatga baxt-saodat eshiklarini ochish vositalarini yaratish masalalari markaziy o‘rinni egallagan.

Forobiyning ideal davlat tuzumiga asoslangan jamiyatda kishilarning tabaqalarga bo‘linishi va ularning imtiyozlari saqlanadi, tabaqaga mansub odamlarning vazifalari va majburiyatlari o‘rtasida tafovutlar saqlanishi, har bir odamning o‘z kasbini yaxshi bilishi va o‘z vazifalarini mukammal bajarishi jamiyatning mustahkamligi hamda adolatning yuzaga chiqishi uchun zarur omildir. Har bir kishining o‘z kasbiga taalluqli vazifalarini to‘g‘ri bajarishi – jamiyatda adolatning joriy etilishi uchun asosdir.

Allomaning fikricha, faqat ijtimoiy adolatning ratsional tamoyili asosida tashkil topgan jamiyatdagina baxt-saodatga erishish imkoni mavjuddir. Fozil shahar yoki ideal davlat aql talablari, adolat va muhabbat asoslari zamiriga quriladi. Xususan, jamiyat a‘zolari o‘rtasida o‘zaro muhabbat axloqiy kategoriya sifatida tashkil topgan fozil jamoaning sobitligi va uning tabaqalari o‘rtasidagi bog‘lanishni ta’minlovchi muhim halqa hisoblanadi. Jamiyat hayotining osoyishtaligi, kishilar o‘rtasidagi hamjihatlik, hamkorlik, jamiyatning yaxlitligi adolatli siyosat va undan kelib chiqadigan namunali ishlar orqali ta’minlanadi hamda yuzaga chiqadi. Shu bois, adolat, Forobiyning fikricha, kishilarning bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibatiga asoslanadi. Mehr-oqibat esa fozil shahar odamlarining fazilatli ishlarga moyilligidan kelib chiqadi hamda ularning baxt-saodatga erishish uchun nimalarni bilish va qanday vositalardan foydalanish mumkinligi to‘g‘risida hamfikrligi hamda umumiy intilishlariga asos bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, Forobiy adolatni fazilatlar ichida eng zo‘ri deb biladi. Ayniqsa, bu hol moddiy boyliklarni taqsimlashda, har kim o‘z ulushini saqlashda yaqqol namoyon bo‘ladi. “Adolatlilik hammaga taalluqlidir, – deb ta’kidlaydi faylasuf, – agar kishi o‘zining hamma faoliyatlarida, boshqa bировlar bilan bo‘lgan munosabatlarida adolatli bo‘lsa, zo‘r fazilatdir. Boyliklarni taqsimlashdagi adolatlilik, o‘z ulushini saqlashdagi adolatlilik bu adolatlilikning eng ommaviy ko‘rinishlaridan biridir”<sup>15</sup>.

Buyuk olim adolatni kamolot, yaxshilik bilan tenglashtiradi. Qayerda kamolot va yaxshilik bo‘lsa, o‘sha yerda adolat bo‘ladi va aksincha, qaysi joyda tushkunlik va yomonlik ustuvorlik qilsa, shu yerda adolatsizlik, jabr-zulm kuchayadi. Xuddi boshqa fazilatlar singari kamolot ham tug‘ma bo‘lmaydi. U ham o‘zgarib turadi, jamiyatning ta’sirida shakllanib boradi. “Inson faoliyatining adolatga yaqinligi yoki uzoqligi, uning xulqiga, yashagan jamiyatiga bog‘liq. Agar unda yomonlik fikrlari

---

<sup>15</sup> Форобий. Давлат арбобининг нақллари // Форобий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 116.

ozroq bo'lsa, adolatga yaqin bo'ladi, agar ko'proq bo'lsa, adolatlilikdan, insofdan uzoqroq bo'ladi"<sup>16</sup>, – deydi alloma.

Forobiy ta'biriga ko'ra, qonun muayyan tartibni o'rnatish vositasi sifatida huquqiy xususiyatlarga ega bo'lmog'i, ruhiy jihatdan qabul qilishga loyiq, obro'li, oddiy insonlar uchun tushunarli, mazmunli, mantiqli, adolatli hamda eng muhimi – ijro uchun majburiy bo'lmog'i lozim.

Uning fikricha, eng mushkul ish – qonunni joriy qilishdir. Qonunga shubha bilan qarash hamda qonun ustidan arz qilish esa eng oson ishdur. Bugungi huquqiy davlat barpo etish jarayonlarida bu kabi o'gitlarning o'ziga xos o'rni bor. Ayniqsa, uning qonunga hurmat bilan qarashning ahamiyati haqidagi fikrlari e'tiborga molikdir. Forobiy shunday deb yozadi: “Qonunning o'zi o'z holicha olijanob va yuqori martabali bo'lishi kerak va uning nomidan hamda u haqida nimaiki gapirilsa ham mo'tabar hisoblanishi lozim. Xalq qonunlarga ehtiyoj sezishi va ularni chuqur o'rganishi zarur, chunki ular keyinchalik xalqning o'ziga foyda keltiradilar. Aks holda, qonundan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi”<sup>17</sup>.

Forobiy siyosiy-huquqiy qarashlarining diqqatga sazovor jihatlaridan yana biri unda qonunchilikning gumanistik mohiyatiga katta e'tibor qaratilganligidadir. Allomaning fikriga ko'ra, qonunchilikning insonparvarlik mohiyati shundan iboratki, u “insonning tabiiy xususiyatlarini hisobga oladi va ular orqali ushbu xususiyatlarni tuzatishga harakat qiladi, chunki ularni tuzata turib, uning (insonning) fe'l-atvori va xulqini tuzatadi”<sup>18</sup>. Asosiy tabiiy xususiyatlarni esa Forobiy lazzatlanish va qayg'u, balog'at va bilim, – deb ataydi. Uning fikricha, keyingi ikki xususiyatga tarbiya va mashg'ulotlar yordamida erishiladi.

Chunonchi, Sharq Arastusi fanlarni taqsimlashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqadi. Uning tasnifi, eng avvalo, tabiatni, tafakkur va nutqni, til va mantiqni chuqur o'rganishga qaratilgan edi.

Forobiyning e'tirof etishicha, ilmlar tasnifidan maqsad voqelikni o'rganish va haqiqatni tasdiqlashdan, uni yolg'ondan farqlashdan iborat. Uning fikricha, bilimlar borliqdan kelib chiqib, borliqni uzoq vaqt o'rganish asosida ular to'planib boradi. Turli ilmlar bir-birini inkor qilmaydi, balki o'zaro bir-biri bilan bog'liq holda rivojlanadi. Ular dunyoni idrok qilishga, insonlarni baxt-saodatga erishishiga qaratilgandir.

Abu Nasr Forobiyning fanlar tasnifida tabiiy va ijtimoiy fanlar o'z vazifasiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, matematika, tabiatshunoslik va metafizika ilmlari inson aql-zakovatini boyitishga xizmat qiladi. Siyosat, axloqshunoslik va pedagogikaga oid bilimlar kishilarni jamoaga birlashuviga xizmat qiladi hamda ijtimoiy hayotning qonun-qoidalarini o'rgatadi.

Bizning e'tirofimizcha, ulug' gumanist falsafa fanining maqomi, inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, uning falsafaga bergan ta'rifi tahsinga sazovordir: “mavjudlik haqidagi bilim qo'lga kiritilsa, shu haqda ta'lim berilsa, mavjudotdan bo'lgan narsaning zoti bilinsa,

---

<sup>16</sup> Форобий. Давлат арбобининг нақллари // Форобий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 128.

<sup>17</sup> Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: Халқ мероси, 1993. – Б. 18.

<sup>18</sup> Аль-Фараби. Историко-философские трактаты. – Алма-Ата: Наука, 1985. – С. 152.

narsaning ma'nosi tushunilsa, ishonchli hujjatlar asosida shu narsa haqida miyada bir turli ishonch va tasavvur paydo bo'lsa, mana shu ma'lumotga doir fan falsafadir"<sup>19</sup>.

Forobiyning fikricha, ijtimoiy takomilga va umumiy baxt-saodatga ilm hamda ma'rifat yordamida hosil qilinadigan aqliy va axloqiy fazilatlarni qo'llanishi tufayli erishiladi. Uning ta'kidlashicha, "haqiqiy baxt mavjud narsalar to'g'risidagi, ularning kelib chiqish sababi haqidagi va nihoyat, so'nggi boshlang'ich sabab – birinchi sabab haqidagi bilimni egallash va bilish orqali qo'lga kiritiladi. Haqiqiy baxt va kamolot har qanday yovuzlik bartaraf etilgan, inson ruhi va aqli esa mohiyati hamda barcha ezgu ishlarni bilishda eng yuksak darajaga erishganda dunyoviy ruh va dunyoviy aql bilan qo'shilgan paytda boshlanadi. Inson tanasi o'ladi, lekin u hayotiylikda qo'lga kiritgan baxt, ma'naviylik yo'q bo'lmay, balki umumiy dunyoviy aqlga qo'shib ketadi"<sup>20</sup>.

Olimning qayd etishicha, jamiyat hayotida va insonning kamolotga erishuvida ilm-fan muhim o'rin tutadi. Forobiy shunday yozadi: "Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin, barcha qonun-qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, dono va ilmli kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real, moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin"<sup>21</sup>.

Abu Nasr Forobiyning diqqatga sazovor bo'lgan fikrlaridan yana biri – insonning ma'naviy hayotida muhim o'rin tutgan omillar, ya'ni aql va axloq masalasidir. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim, bu degani, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi – jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal insonni tarbiyalashdir.

E'tirof etish kerakki, ulug' mutafakkir Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-siyosiy doktrinasida harbiy ustqurma bilan bog'liq masala muhim o'rin egallaydi. Har qanday davlat hayotida xavfsizlik va barqarorlik masalasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu masalaga buyuk ajdodlarimiz ham o'z davrida jiddiy e'tibor qaratganlar.

Manbalardan ma'lum bo'lishicha, Forobiy fozil davlatda odamlarni turli belgilariga qarab har xil guruhlariga ajratgan. Biroq u kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo, aqliy iqtidoriga hamda ilmlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat beradi. Forobiyning fikricha, fozil davlat ma'lum ijtimoiy-siyosiy tarkibga ega aholining besh qatlamidan iborat:

1. Nisbatan imtiyozli shaxslar. Bu toifaga donishmandlar va muhim ishlarda obro'-e'tiborlilar kiradi.

---

<sup>19</sup> Хотамий Саййид Муҳаммад. Ислом тафаккури тарихидан. – Тошкент: Минхож, 2003. – Б. 110.

<sup>20</sup> Хайруллаев М.М. Мироззрение Фараби и его значение в истории философии. – Ташкент: Фан, 1967. – Б. 132.

<sup>21</sup> Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: АН СССР, 1960. – С. 190.

2. Din arboblari va notiqalar, shoirlar, musiqachilar, hattotlar va shunga o'xshash faoliyatni amalga oshiruvchilar.

3. O'lovchilar-hisobchilar, sayohatchilar, tabiblar, koinlar va shularga o'xshaganlar. Forobiy ularni davlat xizmatchilarining eng muhim guruhlariga kiritadi. Ular haqida davlat g'amxo'rlik qiladi.

4. Harbiylar va jamoat tartibini qo'riqlash hamda tashqi hujumdan himoya funksiyasini bajaruvchilar. Fozil davlatda harbiylar garchi adolatni tiklash va adolatli urush olib borish uchun zarur bo'lsalar ham, alohida imtiyozli mavqega ega emas. Ular johil davlatdagi kabi aholiga yot, dushman kuch sifatida maydonga chiqmaydi. Alloma fozil davlat harbiylariga jasurlik, vatanparvarlik kabi sifatlar xos deydi. Harbiy hamshaharlariga foyda keltirishni bilib, o'z hayoti uchun tavakkal qiladi, jamiyat, davlat manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo'yadi. Shuning uchun u o'lganida butun hamshaharlari yig'laydi.

5. Boylar. Bularga shaharda boylik orttiruvchi dehqonlar, cho'ponlar, savdogarlar va shularga o'xshashlar kiradi.

Bizning ta'kidimizcha, Abu Nasr Forobiyning urushlar va ularni oldini olish haqidagi fikrlari ham o'zining chuqur mazmunga ega ekanligi hamda ijtimoiy ahamiyat kasb etishi bilan qimmatlidir. Allomaning fikricha, urush yo dushmanni daf qilish uchun, yo shaharni tashqi dushmandan himoya qilish uchun, yo shahar uchun zarur bo'lgan boylikni boshqalardan tortib olish uchun xizmat qiladi.

Mutafakkirning harbiy-vatanparvarlik g'oyalari tizimida fozil askar va fazilatli lashkarboshi kabi masalalar o'zining yuksak insonparvar mohiyat kasb etishi bilan diqqatga sazovordir. Forobiyning fikricha, "fozil askar agar o'limdan xavotirlansa, u o'zini o'ylamaydi, agar u o'zini o'ylasa, u xudbindir. Shu sababli, u o'lamanmi, o'lmaymanmi deb o'ylamaydi ham, u ehtimol tirik qolar, balki o'lar. Agar zarur bo'lsa, u o'limdan yalinib ham qutulib qolishi mumkin. Biroq asosiy gap bunda emas, gap o'z o'limi bilan xalqiga ko'proq baxt-saodat keltiradimi yoki tirik qolishi bilan ko'proq baxt-saodat keltiradimi – gap ana shunda. Fozil askar shuni o'ylab xavotirlanadi"<sup>22</sup>.

Bundan tashqari, Abu Nasr Forobiy lashkarboshi va uning fazilatlarini xususida ham ilg'or fikrlarni o'rta tashlaydi. Olimning fikricha, lashkarboshi foydali va go'zal hisoblangan fikriy qobiliyati bilan birga, barcha askarlar uchun umumiy axloqiy sifatlarga ham ega bo'lishi kerak va agar lashkarboshi mazkur harakatlarni oxiriga yetkazishni xohlasa, askarlarga xos bo'lgan sifatlardan foydalanadi. Uning jasurligi harbiylarning alohida xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan jasurlikka mos bo'lishi kerak. Bizningcha, Forobiyning askarlar va lashkarboshilar to'g'risida bildirgan fikrlaridan uning o'z davrining yetuk harbiy nazariyotchisi bo'lganligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Fikrimizcha, Abu Nasr Forobiyning ijtimoiy-falsafiy, siyosiy-huquqiy va harbiy merosidan orin olgan ilg'or g'oyalardan bugungi kunda adolat hamda qonun ustuvorligiga asoslangan Yangi O'zbekistonda yashovchi insonlarning siyosiy faolligi, huquqiy savodxonligi va axloqiy madaniyatini oshirish, ularda harbiy-

---

<sup>22</sup> Форобий. Давлат арбобининг нақллари // Форобий. Рисолалар. – Тошкент: Фан, 1975. – Б. 122.

vatanparvarlik hamda ertangi kunga ishonch tuyg'ularini yuksaltirishda keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dissertatsiyaning **“Beruniy va Ibn Sino ijtimoiy-axloqiy va siyosiy qarashlarida gumanistik g'oyalar”** deb nomlangan uchinchi bobida Beruniy va Ibn Sino ijtimoiy-falsafiy ta'limotida inson muammosi, ular ijtimoiy-siyosiy qarashlarining gumanistik mohiyati hamda inson kapitali muammolari mutafakkirlarning asarlari asosida tadqiq etilgan.

Gumanistik ta'limotlar rivojida o'rta asrlar Sharqining mashhur qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniyning hissasi katta. Uning fikricha, inson Allohning yaratuvchilik faoliyati tufayli paydo bo'lgan. U Allohning buyukligi va donishmandligining nishonasidir. Unga in'om etilgan sezgi a'zolari, qo'l, ya'ni barcha nafsiy va aqliy quvvatlar behudaga berilmagan. Ular orqali inson Allohning amr-farmonlarini eshitadi, his qiladi, mo'jizalarini mushohada etadi va bu orqali uning yagonaligidan, qudratli va mehribonligidan xabardor bo'ladi.

Abu Rayhon Beruniyning ta'kidlashicha, bilishning asosi, bizning dunyo haqidagi bilimlarimiz manbai bo'lmish sezgi a'zolari orqali olingan bilimlardir. Alloma ilmiy bilimlar haqida gapirar ekan, bu – aql-idrok tufayli erishilgan yutuqdir, deydi. Shu bois Beruniy bu sohada tajribaning ahamiyatini alohida e'tirof etadi.

Bizning fikrimizcha, Beruniy ilm-ma'rifatga, uning insonni kamol toptirishda ijobiy ta'sir kuchiga chuqur ishonch bilan qaragan. Shuning uchun ilm olish, ilm tarqatish hukmdorlarning muhim vazifalaridan biri ekanligini qayd qilib yozadi: “Ilm sohalari ko'p, ular yanada ko'paymoqda. Jamiyatning yuksalishi ilm bilan bog'liq ekanligini tushungan odamlarning intilishlari ilm-ma'rifat sari bormoqda. Ilm-fanlarga, ularning sohiblariga bo'lgan izzat-hurmat va ishonchning ortib borishi fikrimizning dalilidir. Bu, avvalambor, davlatni boshqaruvchilarning burchi, chunki odamlar qalblarini tirikchilik tashvishlaridan, kundalik turmush g'am-g'ussasidan xalos etish va ilm-ma'rifat bilan rag'batlantirish hukmdorlarning vazifasidir. Insonlar qalbi ma'naviyatga, ilmga moyildir”<sup>23</sup>. Mutafakkir ilm-fanning ahamiyatini jamiyatning farovonligini ta'minlashda muhim ma'naviy vosita ekanligini mana shunday ideal shaklda tushungan edi.

Beruniyning fikriga muvofiq, inson olamdagi boshqa maxluqotlardan o'zining yaratuvchanligi, bunyodkorligi bilan tubdan farq qiladi. Yaxshilik, rostgo'ylik, olijanoblik, muruvvat, mehr-shafqat, do'st-u birodarlik kabi fazilatlar insonni yanada ulug'laydi. Bunday fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan kishi nafaqat o'ziga, balki el-yurtga ham foyda keltiradi. Yolg'onchilik, yomonlik, raqobatlashish, g'animlik, ichiqoralik, qo'pollik, o'g'rilik, tuhmatchilik, ikkiyuzlamachilik, o'ziga bino qo'yish, xushomadgo'ylik, chaqimchilik kabi illatlar insonni tubanlashtiradi.

Ma'lumki, o'rta asr Sharq falsafasida nafaqat inson haqida, balki antropologik yondashuv orqali mukammal ta'limot yaratganlardan biri Abu Ali ibn Sino hisoblanadi. Uning fikricha, inson tana va jondan tashkil topgan. Inson jonini miya boshqarib turadi. Inson boshqa tirik mavjudotlar, xususan, o'simlik, hayvon jonidan o'zining fikr yuritish qobiliyati bilan tubdan farq qiladi. Inson joni eng oliy, eng

---

<sup>23</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Ҳиндистон. Ж.И. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б. 286.

yetuk jondir. Shuningdek, inson joni boshqa tirik mavjudotlar jonidan olamda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning mohiyatini ilg'ab olish, o'zi amalga oshirayotgan faoliyatni aniq maqsadga yo'naltira olish qobiliyatining mavjudligi bilan ham tubdan farq qiladi. Inson jonining eng oliy ifodasi aqlidir.

Allomaning ta'kidlashicha, insonlarning hayvonlardan farqi shundaki, Alloh unga aql in'om etgan. U tufayli inson ezgulikni yovuzlikdan, intellektual yetuklikni adashishdan, do'stni dushmandan ajrata oladi. Aql nuri insonni tasodifiy kuchlar ta'siridan ozod shaxsga aylantiradi. Bilish jarayonida sezgi a'zolari va ularga tayangan mushohada aqlning eng yaqin ko'makchilari vazifasini bajaradi.

Ibn Sino salafi Forobiy kabi o'zining ratsionalizm ta'limotida aqlga alohida e'tibor qaratadi. Aql – buyuk ne'mat, usiz bilish jarayoni hech qachon oxiriga yetmagan bo'lar edi. Aql inson zotini hayvonot olamidanda ajratib turadi. Uningcha, "aqlning quvvati cheksizdir va u fikrlayotgan narsa ham benihoyadir. Aql istagan barcha narsalarni o'zida aks ettira oladi"<sup>24</sup>. Jonli mushohadaning kuch-quvvati aksidensiyalar-narsa-ashyolarning muhim bo'lmagan xossa-xususiyatlaridan chetga chiqmasa, aql qudrati ularning eng muhim jihati – mohiyat, javhar saltanatini egallab olishni yagona maqsad qilib oladi. Oddiy mushohada darajasida inson ongida olam to'g'risida sodda tasavvurlar bo'lishi mumkin, lekin aql ne'matisiz ilm-fanning bo'lishi amrimaholdir.

Sharq gumanizmining buyuk namoyandasi sifatida Ibn Sino faqat ilm-fan va madaniyatgina inson uchun haqiqat eshiklarini ochish imkonini beradi, deb hisoblaydi. Bu esa mazkur masalada uning boshqalar uchun namuna sifatida nafaqat kitoblardan, balki bevosita hayotning o'zidan ham olingan bilimlar uchun kurashgan o'z davrining tadqiqotchisi va kuzatuvchisi bo'lganligini ko'rsatadi.

Bizning fikrimizcha, Ibn Sino ilm-fansiz taraqqiyot bo'lmashligiga ishongan. Alloma fanga butun umrni bag'ishlash kerak, unga yaxshini ham, yomonni ham o'ziga singdirib oluvchi ummon bo'lgan butun jonni baxshida etish kerak, deydi. Yetuk insonda jon aql mash'alida, boy bilimlar, inson donoligida namoyon bo'ladi. Uning quyidagi so'zlari madhiya sifatida yangraydi: "Ilgarilab yurmoq uchun joningni bilimlar bilan boyit. Va hamma narsadan voz kech, chunki u (ya'ni jon) hamma narsa uchun uy bo'lib xizmat qiladi. Haqiqatan ham, jon qoya, fan esa sham va inson donoligi – orombaxsh yog'dir"<sup>25</sup>.

Shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Beruniyning inson to'g'risidagi mulohazalari adolatli podshoh misolida yanada yuqori pog'onaga ko'tariladi. U jamiyatni, ayniqsa, davlatni boshqarishda podshohning o'rni haqida to'xtalib, jamiyat podshohga xizmat qilmasdan, balki podshoh jamiyatga xizmat qilishi lozim, deydi. Adolatli podshoh aziyat chekkan barcha fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilishi, birovlarning tinchligi, osoyishtaligi yo'lida o'z tinchligidan voz kechishi zarur. Podshohning o'zi yaratuvchanlik qobiliyati bilan boshqalardan ajralib turishi kerak. Hokimlar, ishboshilar tanlaganda tabiatan jamiyatni boshqarishga mayli bor,

---

<sup>24</sup> Ибн Сина (Авиценна). Избранные философские произведения. – М.: Наука, 1980. – С. 272.

<sup>25</sup> Рахимов С.Р. Психолого-педагогические взгляды Абу Али ибн Сины. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – С. 79.

o'zining mustaqil fikri bor, o'zi qabul qilgan qarorlarning bajarilishida qat'iylik ko'rsatuvchi kishilarni tanlashga e'tibor qaratish zarur ekanligini ta'kidlaydi<sup>26</sup>.

Beruniyning axloqiy ideali – bu o'zining mehnati bilan tirikchilik qiluvchi, bironing mol-mulkiga va joniga qasd qilmaydigan odamning turmush tarzidir. Uning tasavvuridagi komil inson o'z nomusi va qadr-qimmatini saqlagan, olijanob va mehr-shafqatli odamdir. “Olijanob odam o'zining joni va o'zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli mulkni boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og'ir yukini o'z yelkasiga olib, ular uchun o'zi mashaqqat tortib, Alloh unga in'om etgan narsalarini muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard sanaladi. Javonmard o'zining olijanoblighi va xayr-saxovati bilan mashhur bo'lgan odam. Ayni vaqtda javonmard o'zining xushmuomalalighi, mehr-shafqati, sabot-matonati, obro' izzati bilan ham nom chiqargan odamdir”<sup>27</sup>. Alloma aynan mana shunday dovyurak odamlarni yuqori darajali lavozimlarga tayinlash kerak deydi.

Ibn Sinoning ijtimoiy-siyosiy ta'limotida ideal davlat konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Bu masalada u o'tmishdoshlari qoldirgan ilmiy merosni rivojlantiradi va ulardan ijodiy foydalanadi. Ibn Sino ideal davlat manzarasini quyidagicha tasvirlaydi: “Birinchidan, mehnat insonning barcha qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilishning muhim usuli bo'lib, vujudning chiniqishi uchun zarurdir, shuning uchun ham hayotdagi ilg'or ideal davlatda barcha inson o'z foydasi uchun mehnat qilishga majbur; ikkinchidan, mazkur davlatda barcha moddiy boyliklar barobar taqsimlanishi bilan birga, haddan tashqari boylar va o'ta qashshoqlar bo'lmaydi; uchinchidan, barcha kishi halol mehnat bilan shug'ullanar va vijdonan savdo qilar ekan, demak, hech kimga janjallar kerak emas, urushlar yo'qoladi, davlatlar o'rtasidagi siyosiy nizolar esa tinch yo'l bilan hal qilinadi; to'rtinchidan, ideal davlatda odamlar jamiyatdagi tartib va tarbiya ta'sirida o'z axloqlarini o'zgartiradilar hamda uzoq umr ko'radilar. Hozircha esa odamlar zolim, chunki ehtiyoj va boylik bor, shuning uchun ham ular bir-birlariga qarshilik ko'rsatadilar. Ideal davlatda esa odamlar barcha narsa bilan ta'minlangan bo'ladi va shu bois ixtiloflar kuzatilmaydi”<sup>28</sup>.

Ibn Sino salafi Forobiy singari adolatli jamiyat qurish tarafdori bo'lgan. U adolatli jamiyatni odil va yetuk insonlar boshqarishlari kerak, deydi. Chunki Ibn Sinoning talqinida, bunday insonlar davlatni adolatli qonunlar asosida boshqaradilar. Jamiyat a'zolari ham bu qonunlarga itoat etishlari lozim. Qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi kerak. Hatto hokim-podshohning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i kerak. “Adolatli jamiyatni boshqaradigan hukmdor, Ibn Sino fikricha, adolatga erishish maqsadida xalqqa axloqiy xususiyatlarni va asriy an'analarni o'rgatishi lozim, adolat esa – inson xatti-harakatining eng yaxshi bezagidir”<sup>29</sup>.

---

<sup>26</sup> Абу Райхон Беруний. Танланган асарлар. Қадимги халклардан қолган ёдгорликлар. Ж. I. – Тошкент: O'zbekiston, 2022. – Б. 74.

<sup>27</sup> Жакбаров М. Комил инсон ғояси: тарихий-фалсафий таҳлил. – Тошкент: Абу Али ибн Сино, 2000. – Б. 92.

<sup>28</sup> Болтаев М.Н. Абу Али ибн Сина – великий мыслитель, ученый-энциклопедист средневекового Востока. – Казань: Мастер Лайн, 1999. – С. 308-309.

<sup>29</sup> Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв. – М.: АН СССР, 1960. – С. 83.

So‘nggi yillarda inson kapitali va u bilan bog‘liq masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dastlab inson kapitali deganda, faqat insonning mehnat qobiliyatini oshiradigan investitsiyalar yig‘indisi – ta‘lim va kasbiy mahorat tushunilgan. Inson kapitali keng ma‘noda iqtisodiy o‘shishning intensiv ishlab chiqarish omili, jamiyat va oila rivoji, bilimlar, intellektual va boshqaruvchi mehnat vositalari, aholi salomatligi va yashash muhiti, zamonaviy malakali kadrlarning yuksak salohiyatidir<sup>30</sup>.

Bizning fikrimizcha, inson kapitali aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, intellektual faoliyatga sarmoyalar kiritish orqali shakllantiriladi. Jumladan, ta‘lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, ishbilarmonlik qobiliyati va muhiti, mehnatni axborot bilan ta‘minlash, samarali elitani shakllantirish, shuningdek, madaniyat sohasida, badiiy va boshqa tarkibiy qismlar vositasida ham rivojlantiriladi.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, insonning axloqiy qiyofasi jamiyatda, boshqalar ta‘sirida shakllanadi. Inson tashqi qiyofasining shakllanishida tabiat faol qatnashgan, uni o‘zgartirish imkoniyati yo‘q. Xulq-atvorini o‘zgartirish esa insonning o‘z qo‘lida. Fazilatlarini yomondan yaxshiga aylantirishning imkoniyatlari cheksizdir. Buning uchun har bir inson o‘z xulq-atvori, his-tuyg‘ulari ustidan hukmron bo‘lmog‘i, ruhini tarbiyalab borishi lozim. Shunda u o‘zining tuban xislatlaridan ozod bo‘lib, yuksak axloqiy fazilatlar sohibiga aylanadi.

Ibn Sinoning qayd etishicha, inson muayyan jamiyatning mahsulidir. Inson uni qurshab olgan ijtimoiy muhit – kishilarning bevosita ta‘sirida ta‘lim-tarbiya oladi, voyaga yetadi, shaxs bo‘lib shakllanadi va muayyan maqsadni ko‘zlaydi. “Agar jamiyatning bu ta‘siri xosiyatli bo‘lsa va inson uning ma‘naviy-axloqiy talablarini o‘zi uchun begona deb bilmasa, uning ma‘naviy kamoloti behad darajada tezlashadi. U ortiqcha qiyinchiliklarsiz, behuda sa‘y-harakatlarsiz o‘z kamchiliklaridan xalos bo‘ladi, axloqan halol va pok inson sifatida voyaga yetadi, unda yuksak axloqiy fazilatlar va aqliy kamolot birligi, mushtarakligi g‘olib keladi. Bunday ilm bilan yo‘g‘rilgan axloq birligi har qanday ta‘lim-tarbiyaning ideali bo‘lib qolmog‘i lozim. Inson va jamiyatning maqsad-muddaosi hamda axloqiy ideali bir-biriga zid kelib qolgan taqdirda jamiyat hayoti parokandalikka yuz tutadi va kishilarning axloqiy kamolotiga putur yetadi”<sup>31</sup>.

Fikrimizcha, O‘zbekistonni rivojlangan davlatlar qatoriga ko‘tarish uchun ulkan qudrat, katta salohiyat kerak. Bu kuch va salohiyat millatimizning inson kapitalida, ya‘ni har bir odamning nimalarnidir bilishida, nimalarni qanday o‘quv va malaka bilan bajara olishida, Vataniga, xalqiga nisbatan cheksiz sadoqatida namoyon bo‘ladi. Fuqarolik jamiyatini qo‘llab-quvvatlashga kiritiladigan har bir investitsiya kishilarning kreativligini, qonunlarga bo‘ysunishini ta‘minlaydi, jamiyatda ko‘tarinkilik muhitini yuzaga keltiradi, ratsional dunyoqarashni shakllantiradi. Natijada odamlar sog‘lom turmush tarziga o‘rganadi.

---

<sup>30</sup> Шапкин И.Н. Человеческий капитал: теория, исторический опыт и перспективы развития. – М., 2017. – С. 19.


<sup>31</sup> Носиров Р. Абу Али ибн Синонинг табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий қарашлари. – Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ институти, 2009. – Б. 28.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi “Yangi O‘zbekiston va ajdodlar merosining ilmiy, milliy va umumbashariy ahamiyati” deb nomlanadi. Tadqiqotimizning ushbu bobida Sharq gumanizmi ilg‘or an‘analarining ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixidagi ahamiyatini tahlil etib, bilim va shaxs konsepsiyasi sifatida Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy, xalqchil va insonparvar davlat barpo etish jarayonlariga ta’siri hamda istiqbollarni, shuningdek, zamonaviy sharoitda buyuk ajdodlarimizning gumanistik g‘oyalarini targ‘ib qilishning innovatsion metodlarini ochib berdik.


Bugungi kunda Yangi O‘zbekiston tushunchasi mamlakatimizning zamonaviy qiyofasini shakllantirish, yurtimizda demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish borasidagi islohotlarimizning tayanch g‘oyasini ifoda etadi. Ana shu g‘oya asosida yurtimizda “Yangi O‘zbekiston – Uchinchi Renessans sari” degan shior ilgari surilmoqda.

Ta’kidlash joizki, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi xalqimizning ulkan va istiqbolli rivojlanishi hamda yuksalishiga ishonchini yanada kuchaytirdi. Millati, elati, tili va dinidan qat’i nazar har bir fuqaro, xalqimiz farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Demak, xalqimiz ko‘nglidagi intilishlar bu g‘oyada o‘z aksini topdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumatining insonparvarlik tamoyilini qo‘llab-quvvatlash, inson huquqlarini himoya qilish, majburiy mehnatni cheklash va inson qadrini oshirishga qaratilgan siyosati natijasida milliy davlatchiligimiz poydevori mustahkamlanib, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatleri kafolatlanmoqda, har bir fuqaro va oila farovonligi oshib, qonun ustuvorligi ta’minlanmoqda. Bunga misol sifatida, birgina 2022-yilda Inson huquqlari bo‘yicha vakil (Ombudsman) nomiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, xorijiy davlatlar fuqarolari va ombudsmanlari, fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar, jamoat tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar 17761 tani tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 2021-yilga nisbatan (18738 ta) 5,2 %ga yoki 977 taga kamaygan. Jumladan, fuqarolardan 16012 ta (2021-yilda 16559 ta), jazoni ijro etish muassasalaridan 1699 ta (2021-yilda 2120 ta), xorijiy davlatlardan 50 ta (2021-yilda 59 ta) murojaat kelib tushgan (*1-diagramma*).



O‘z navbatida, murojaatlarning 31,4 %i ijtimoiy huquq yo‘nalishidagi (2021-yilda 29,9 %), 27,7 % murojaat etish huquqi hamda siyosiy huquq va erkinliklar yo‘nalishidagi (2021-yilda 5,6 %), 24,2 % iqtisodiy huquq yo‘nalishidagi (2021-yilda 24,3 %), 13,0 % shaxsiy huquq va erkinliklar yo‘nalishidagi (2021-yilda 39,6 %), 1,0 % ekologik huquq yo‘nalishidagi (2021-yilda 0,6 %) hamda 2,7 % boshqa yo‘nalishdagi murojaatlarni tashkil etgan (2-diagramma).



Bizning fikrimizcha, Markaziy Osiyo xalqlarining ilg‘or ijtimoiy-falsafiy merosini uning shakllanish davriga oid materiallar asosida tahlil qilish Sharq hayotbaxsh hurfikrliligining o‘z davri jamiyati ijtimoiy va ma‘naviy hayotining barcha tomonlarini qamrab olgan, o‘zining tarixiy va g‘oyaviy-nazariy asoslariga ko‘ra nihoyatda murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shunday ekan, Sharq hayotbaxsh hurfikrliligi erishgan yutuqlar, natijalar sifatida – dunyoqarash masalalarini ijobiy hal qilish; inson iroda erkinligini e‘tirof etish; aql, fan, falsafa dalillarini, haqiqatni diniy e‘tiqoddan ustun qo‘yish va ularning erkin hamda mustaqil rivojlanishiga yo‘l ochish; ijtimoiy-siyosiy masalalarni dunyoviy hal qilish – adolatli jamiyat, odil podshoh to‘g‘risidagi g‘oyalarni, yangi tipdagi gumanizmni – insonga, uning aqli, qadriga, irodasiga yangicha insonni, yerdagi hayotni ulug‘lash nuqtayi nazaridan yondashish masalalarini keltirib o‘tish o‘rinlidir.

Insoniyatning ulug‘ mutafakkirlari doimiy o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lgan jamiyatning tub mohiyatini bilishga, insonning jamiyatdagi o‘rni va rolini belgilashga, taraqqiyot mantig‘ini anglashga harakat qilganlar. Turli tarixiy davrlarda jamiyat mohiyati mifologik, diniy ta‘limotlar orqali izohlangan. Jamiyat mohiyatini ilmiy-falsafiy bilish, jamiyatning yaxlit ilmiy manzarasini yaratish insoniyat ma‘naviy taraqqiyotining buyuk yutug‘i bo‘ldi. Ilmiy bilimlar va falsafiy tafakkurning rivojlanishi bilan jamiyat mohiyatini ilmiy asosda o‘rganish imkoniyati vujudga kelgan.

Bugungi kunda yurtimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish istiqbollari, ustuvor yo‘nalishlarini aniq belgilab olish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda, Bilim jamiyati axborot jamiyatining zamonaviy bosqichi va alohida jamiyat turi sifatida talqin etiladi. Axborot jamiyatining Bilim jamiyatidan farqi axborot va bilim tengsizligidir. Ya‘ni “axborot jamiyatida bilimlardan hamma birdek foydalanishi, tarqatishi, qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Bilim jamiyatida esa bilim ijtimoiy boylik sifatida e‘tirof etiladi va har bir jamiyat a‘zosi undan bahramand bo‘lishi, iqtisodiy, siyosiy jihatdan ta‘minlangan bo‘ladi. Bilim jamiyati barcha

insonlarning imkoniyat va huquqlarini kengaytirish, integratsiya qilish, hamkorlik, globallashuvni gumanizatsiya qilishni kun tartibiga qo'yadi. Jamiyat a'zolarining bilimdonlik darajasining ortib borishi natijasida axborotlashuv va axloq birligiga erishiladi. O'qish va bilim olish Bilim jamiyatining asosiy qadriyatiga aylanadi"<sup>32</sup>.

Ma'lumki, jamiyat hayoti va taraqqiyotida gumanistik g'oyalar muhim o'rin tutadi. Gumanistik g'oyalarning shakllanishida qadimgi Sharq falsafiy tafakkuri, Yunon va Rim madaniyati, insoniyatning hurfikrlilik an'analari, aqlning faolligi, vijdon va iroda erkinligi g'oyalari hal qiluvchi rol o'ynagan. Ayniqsa, o'rta asr Sharq falsafiy tafakkur taraqqiyotida gumanizm masalasi o'ziga xos tarzda tushunilgan va tushuntirilgan. Xususan, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar o'zlarining gumanistik g'oyalari bir qator asarlarida keng ifodalaganlar. Mazkur asarlar zamonaviy ta'limda axloq-odob, tinchlikparvarlik, ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Bizningcha, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning gumanistik g'oyalari o'ziga xos bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi insonni har tomonlama kamolotga yetkazish va jamiyatni takomillashtirish bo'lgan. Shu bois, Forobiy fozil jamiyat va fazilatli insonni kamol toptirishga, Beruniy bilimga intilish, inson va tabiat uyg'unligini qadrlashga, Ibn Sino esa axloqiy fazilatlar va shaxs kamolotini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Ularning g'oyalari o'rta asr islom falsafasida chuqur iz qoldirgan va zamonaviy gumanistik oqimlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

